

PEDAGOGIK BILIM BERISH – PEDAGOGIK FAOLIYATNI RIVOJLANTIRISHNING MUHIM OMILI

Lola RUSTAMOVA,
ISFT instituti pedagogika fani o'qituvchisi

Abstract

this article explain how we will consider the extent of pedagogy essential in acquiring knowledge, skills, skills for students, the relationship and functioning of teachers and students, analysis of one another in the pedagogical process.

Keywords

pedagogy, process, imagination, knowledge, factor, teacher, society, activity, spirituality, perfection, experience, development, upbringing, education.

Аннотация

В этой статье мы рассматриваем педагогический уровень, который необходима для приобретения знаний, навыков, навыков для студентов, взаимоотношения и функционирование учителей и студентов, анализ друг друга педагогическом процессе.

Ключевые слова

педагогика, процесс, воображение, знания, фактор, учитель, общество, деятельность, духовность, совершенство, опыт, развитие, воспитание, образование.

Annotatsiya

ushbu maqolada o'quvchilar, talabalar uchun bilim , ko'nikma, malakalarni egallashda pedagogikaning zaruriyati qay darajada ekanligi, pedagogik jarayonda o'qituvchi va o'quvchilarning bir- biriga o'zaro munosabati va faoliyat ko'rsatishi, o'zaro tahlil qilish kabilar bayon etilgan.

Kalit so'zlar

pedagogika, jarayon, tasavvur, bilim, omil, o'qituvchi, jamiyat, faoliik, ma'naviyat, kamolot, tajriba, rivojlanish, tarbiya, ta'lim.

Dunyoning ilg'or mamlakatlarida ta'limga rivojlanish birinchi galdeg'i ustuvor vazifa sifatida belgilangan. Hozirgi kunda zamонавиҳ hayotimizni ma'naviyat, ilm-ma'rifat va

ta'limning jadal sur'atda rivojlanishisiz tasavvur etib bo'lmaydi. Har qaysi davlatning yuksak ravnaqi, aynan ilm-fan va sport sohasida qo'lga kiritgan yutuqlari bilan uzviy bog'liqdir. Bugungi kunda yurtimiz haqida so'z ketganda "Yangi O'zbekiston" iborasi tilga olinmoqda. "Yangi O'zbekiston – yangi dunyoqarash" tendensiyasi ta'lim sohasida chuqur va sezilarli islohotlarni, zamonaviy ta'lim tizimini barpo etishning ustuvor yo'nalishlarini, vazifalarini belgilab bermoqda. Bugun mamlakatimizda aynan ta'lim sohasiga yangicha boshqaruv tizimlarini joriy etish, ta'lim jarayonini tashkil etish darajasini jahon ta'limi tizimi tajribasi asosida rivojlantirish, ta'lim sifatini oshirish va kelajak mutaxassislarining mustaqilligi va mas'uliyatini rivojlantirish dolzARB masalaga aylangan. Yurtboshimiz Shavkat Mirziyoyevning ta'lim sohasida qabul qilayotgan qonun hujjatlari ta'lim tizimini yanada takomillash-tirishga, berilayotgan ta'lim sifatini yaxshilashga, shuningdek, kelajak avlodlarimizning yanada bilimli, mustaqil va har sohada ilg'or bo'lib yetishishlariga imkoniyat yaratmoqda. Bu esa mamlakatimiz ta'lim tizimining o'zgarish bosqichida turganligidan dalolat beradi. Bunda esa pedagogika fani bizga juda katta tayanch vazifasini o'tashi mumkin.

Pedagogika yunoncha so'z bo'lib, "bola yetaklovchi" ma'nosini bildiradi. Insonning ma'rifiy va ma'naviy barkamollikka munosabatining o'zgarib borishi natijasida pedagogika fani xalq orasida o'z mavqeyiga ega bo'ldi. Shu tariqa insonni tarbiyalovchi fan sifatida pedagogika dunyoviy fanlar tizimi qatoridan alohida o'rIN egalladi. Uning bosh masalasi tarbiyadir. Abdulla Avloniy tarbiyachiga alohida e'tibor berib: "Tarbiya yo hayot, yo mamot, yo najot, yo halokat, yo saodat, yo falokat masalasidir", degan edi. [3; 17]

Pedagogik bilimlar kasbiy xulq-atvor, madaniyat, shaxsni o'zgartirish va shakllanti-rish jarayoni, uning ma'naviy rivojlanishi, hayotning hissiy, intellektual va boshqa sohalarda o'zgarishlarni amalga oshirishga yordam beradi. Bu esa bo'lajak o'qituvchilarda o'z kasbining muhimligi uchun katta mas'uliyatni yuklaydi. Pedagogik bilimlar jamiyat uchun alohida ahamiyatga egadir. Talabalarning pedagogik jarayondagi faoliyati uchun yangi shakl, metod, standartlar, usullar, o'tiladigan mavzu bo'yicha esa yangi tamoyillar, jihatlar va tarkibiy qismlar yaratilishi zaruratini talab etadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning "Yana bir muammoni hal etish o'ta muhim hisoblanadi: bu pedagog va professor-o'qituvchilar tarkibining professio-nal darjasini, ularning maxsus bilimlaridir. Bu borada ta'lim olish, ma'naviy-ma'rifiy kamolot masalalari va haqiqiy qadriyatlarini shakllantirish jarayonlariga faol ko'mak beradigan muhitni yaratish zarur" – degan fikrlari katta ahamiyat kasb etadi. [1; 45] Bunda har bir pedagog o'z oldiga muhim vazifani qo'yishi, ya'ni pedagogik tajribani egallashi lozim. Pedago-gik tajriba, ya'ni eksperiment lotincha "sinab ko'rish", "tajriba qilib ko'rish" degan ma'noni anglatadi. Pedagogik tajriba metodidan muammo yechimini topish imkoniyatlarini o'rganish, mavjud pedagogik sharoitlarning maqsadga erishishning kafolatlay olishi, ilgari su-rilayotgan tavsiyalarning amaliyotda o'z in'ikosiga ega bo'la olishi hamda samaradorligini aniqlash maqsadida foydalaniladi. Muayyan muammo yechimini topishga yo'naltirilgan

pedagogik tajriba ma'lum doirada, soni aniq belgilangan respondentlar ishtirokida amalga oshiriladi. Mazkur metoddan foydalanish o'qituvchiga ilgari surilayotgan maxsus metodikaning samaradorligini aniqlash hamda unga baho berishda ko'makchi hisoblanadi.

O'quvchi va talabalarning bilimini, aqliy kamolotlarini nazorat qilish va baholash davlat miqyosida muhim ahamiyatga egadir. Shu bilan birga nazorat va baholash jarayoni o'quvchi shaxsini rivojlantirishga va tarbiyasiga ta'sir ko'rsatadi. Yana bir muhim masha'la O'zbekiston Respublikasida "Ta'lism to'g'risidagi qonun" ning qabul qilinishiga bir qator omillar sabab bo'ldi: birinchidan, biz yashayotgan muhitda ijtimoiy tuzum o'zgarishi bo'lsa, ikkinchidan, ijtimoiy ishlab chiqarish va mulkka bo'lgan munosabat o'zgardi. Eski mafkraviy qarashlar yangi sharoitga javob bermay qo'ydi. Ta'lism muassasalarida olib borilayotgan tadbirlar jahon andozalariga mos ravishda tashkil qilinishini, talabalarga, o'quvchilarga milliy va umuminsoniy qadriyatlar his-tuyg'ularini singdirib, ularni har tomonlama barkamol, chuqur bilimga ega mutaxassis etib tayyorlashni taqozo etdi. [2; 8] Bizning ham oliy maqsadimiz yosh avlodni har tomonlama barkamol qilib tarbiyalash, xalqimizning azaliv orzusini, ya'ni ma'rifat, ma'naviyat va madaniyatni yoshlар ongiga singdirish va o'rgatishdan iboratdir.

Yuqoridagilardan xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki, pedagogika har bir insonni mehnatga, hayotga tayyorlashning asosiy vositasi hisoblanadi. Ta'lism berish jarayonida tarbiya va ma'lumotning maqsadi pedagogik jarayonda amalga oshiriladi va bu ikki tomonlama jarayon – o'qitish va o'qishni o'z ichiga oladi. Tarbiya, ta'lism hamda ma'lumot berishning nazariy va amaliy jihatlarini o'rganuvchi fanlar majmuasi sifatida pedagogika fani muhim ekanligini aytishimiz mumkin. Bugun mamlakatimizda aynan ta'lism sohasiga yangicha boshqaruв tizimlarini joriy etish, jahon ta'limi tizimi tajribasi asosida ta'lism sifatini oshirish va rivojlantirish dolzarb masalaga aylangan. Ta'lism sohasida qabul qilayotgan qonun hujjatlari ta'lism tizimini yanada takomillashtirishga, berilayotgan ta'lism sifatini yaxshilashga va yosh avlodni yanada bilimli, mustaqil va salohiyatli bo'lish imkoniyatini yaratadi. Bu esa mamlakatimiz ta'lism tizimining o'zgarish bosqichida turganligidan dalolat beradi.

Foydalilanigan adabiyotlar:

1. Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. - T.: O'zbekiston. 2017.
2. Ibragimov X., Abdullayeva Sh. Pedagogika nazariyasi. - T.: Fan va texnologiya, 2008.
3. Avloniy A. Turkiy guliston yoxud axloq. - T.: Meros, 1993.
4. Pedagogika fanidan izohli lug'at. (Tuzuvchilar: J. Hasanboyev, X. To'raqulov, O. Hasanboyeva, N.Usmonov). - T.: Fan va texnologiyalar, 2009.

YOSHLARDA BADIY ESTETIKLIKNI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

Zarnigor XAYRULLAYEVA,
ISFT instituti pedagogika fani o'qituvchisi

Abstract

this article analyzes aesthetic culture, its importance, relevance, main tasks, the types of aesthetics, eco-aesthetics, empirical aesthetics and its tasks, beauty and enjoyment techniques, depending on the philosophical views and methodological attitude of the scientists involved in aesthetics.

Key words

Aesthetic culture, empirical aesthetics, ecoaesthetics, philosophical aesthetics, scientific aesthetics, taste, art, beauty.

Аннотация

В статье анализируются эстетическая культура, ее значение, актуальность, основные задачи, виды эстетики, экоэстетика, эмпирическая эстетика и ее задачи, техника красоты и наслаждения в зависимости от философских взглядов и методологической позиции ученых, занимающихся эстетикой.

Ключевые слова

эстетическая культура, эмпирическая эстетика, экоэстетика, философская эстетика, научная эстетика, вкус, искусство, красота.

Annotatsiya

ushbu maqolada estetik madaniyat, va uning ahamiyati, dolzarbligi, asosiy vazifalari, estetika bilan shug'ullanadigan olimlarning falsafiy qarashlari va uslubiy munosabatiga qarab estetika turlari, ekoestetika, empirik estetika va uning vazifalari, go'zallik va undan zavq olish texnikasi tahlil qilingan.

Kalit so'zlar

estetik madaniyat, empirik estetika, ecoestetika, falsafiy estetika, ilmiy estetika, did, san'at, go'zallik

Estetik madaniyat milliy ongni, ma'naviy uyg'onish va taraqqiyotni nazarda tutuvchi omillardan biri bo'lib, bir qator ijtimoiy vazifalarni bajaradi. Shu bois o'quvchilarda badiiy estetik didni rivojlantirish hozirgi kunning dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi. O'quvchilarda estetik ongni rivojlantirish vazifalari sirasiga quyidagilar kiradi.

Birinchidan, o'quvchilarda ezgu xislat-fazilatlarni rivojlantirish, onglilik, faollik va ijodiy qobiliyatlarni o'stirish;

Ikkinchidan, yangi texnika va texnologiyalardan ta'lim-tarbiya jarayonida unumli foydalanish;

Uchinchidan, yangi bozor iqtisodiyoti sharoitida o'quvchilarning huquqiy bilimlarini oshirish va o'z huuqlaridan to'g'ri foydalanish ham estetik madaniyat darajasini yuksaltishni taqozo etmoqda;

To'rtinchidan, o'quvchilarni ma'naviy-ruhiy jihatdan tarbiyalash;

Beshinchidan, radio, matbuot, ayniqsa, "oynayi jahon" kabi ommaviy axborot vositalarining turmushda keng o'rini olishi natijasida keskin ortib borayotgan axborotlardan to'g'ri va maqsadli foydalanish madaniyatini rivojlantirish;

Oltinchidan, o'z tanlagan kasbidan zavqlanish, muammolarga asosli yechim topish, tushkunlikka tushib qolmaslik, atrofdagilar bilan samimiy munosabat o'rnatishish uchun muomala madaniyatini tarbiyalash estetik tarbiyaga yanada ko'proq e'tibor berishni talab etmoqda [1; 284].

Hozirgi kunda professorlar V.P. Krutous (hayot falsafasi, estetikasi, rus estetikasi, badiiy ijod psixologiyasi), T.V. Kuznetsova (kundalik hayot, san'at va moda estetikasi), A.A. Oganov (rassomlik, ijodkorlik, teatr san'ati nazariyasi muammolari); Dotsentlar A.R. Apresyan (san'at tarixi va nazariyasi, badiiy til muammolari va uning talqinlari, rassom shaxsini idrok etishni belgilovchi omillar), S.A. Dzikevich (estetika, reklama estetikasi, zamonaviy san'at, ekologik estetikaning ontologik va epistemologik muammolari), S.A. Zavadskiy (deviant estetika, zamonaviy san'atning nazariy masalalari), E.A. Kondratyev (talqinning estetik muammolari, san'at sintezi muammolari, kompozitsiya estetikasi), katta o'qituvchi A.G. Rukavishnikov (rus diniy va falsafiy fikri, teologik estetikasi, ikonkalarni tasvirlash tarixi va umuman xristianlik san'ati, shuningdek, psixologiya, madaniyatshunoslik va estetikaning o'zaro aloqasi bilan bog'liq ko'plab muammolar) [2; 14].

O'zbekistonning ta'lim sohasidagi davlat siyosati uzluksiz ta'lim tizimi prinsipi ga asoslanadi. Ta'limda uzviylikni, tarbiyada uzluksizlikni ta'minlash hozir ham taktik va strategik maqsad bo'lib qolmoqda. Bu jarayon "Ilmiy-Ijodiy-Ma'naviy muhit barqarorligi" tamoyili ustuvor bo'lgandagina samarali natija berishi mumkin. Shunday ekan, pedagogik ta'limga nisbatan dunyoqarash va yondashuvni o'zgartirish, uning asoslarini yangicha qarash va mazmun bilan boyitish maqsadga muvofiq. Bu vazifaning muayyan qismini estetik tarbiya klasteri orqali amalga oshirish mumkin.

Pedagogik texnologiyada klaster puxta o'ylangan strategiya bo'lib, undan ta'lif oluvchilar bilan yakka tartibda yoki guruh asosida tashkil etiladigan mashg'ulotlar jarayonida foydalanish mumkin. Klasterlar ilgari surilgan g'oyalarni umumlashtirish va ular o'rtasidagi aloqalarni topish imkoniyatini yaratadi.

Hozirgi davrda estetik tarbiya klasterining ijtimoiy-ma'naviy zaruriyatini quyidagi jihatlar bilan izohlash mumkin:

1) globallashuv davri inson faoliyatining maqsadli yo'naltirishga qaratilgan estetik tarbiyaga "yaqin va ishonchli sherik" sifatida baho bermoqda. Xususan, uzluksiz ta'lifni tashkil etish va rivojlantirish ta'lifning ijtimoiylashuviga, ayniqsa, ta'lif oluvchilarda estetik boy dunyoqarashni hosil qilishga ko'p jihatdan bog'liq ekanligi kuzatilmoqda. Chunki, bugungi kunga kelib estetika fanining tadqiqot sohasi shunchalik kengaydiki, deyarli barcha sohalarda, jumladan sog'liqni saqlash tizimida-tibbiyot estetikasi, ekologik sohada-ekologik estetika, texnikaviy taraqqiyot sohasida-texnika estetikasi (dizayn) kabi sohalarning yuzaga kelgani shular jumlasidandir.

2) jamiyatning ma'naviy hayotini yuksaltirish ham estetika fani oldiga qator vazifalarni qo'ymoqda. Bundan tashqari, bugungi kunda odamlarga, ayniqsa yoshlarga "huzurhalovat va lazzat manbayi" sifatida taqdim etilayotgan ma'lumotlarning aksariyati xorijiy ommaviy axborot vositalari hamda internet tarmoqlaridagi turli xil saytlar hisobiga to'g'ri kelmoqda.

3) keyingi paytlarda fetishestetikasi (yengil-yelpi, yaltiroq estetika), "Ommaviy madaniyat"ning inson maishiy turmushi bilan bog'liq saytlari shunchalik ko'payib ketdiki, ular yoshlarning estetik didini pasaytirishga va estetik dunyoqarashini o'dirilishiga olib kelayotganiga guvohmiz. O'quvchilarda bunday g'ayriestetik g'oyalar va ko'rinishlarning salbiy oqibatlarini tushuntirib beradigan ta'lifiy asosni mustahkamlashda estetik tarbiya klasteri yaqin ko'makchi bo'lib xizmat qiladi [3; 56].

Estetikaning insonlarning ijodiy faoliyatlaridagi roli benihoya kattadir. Hayotga estetik munosabatda bo'lish ilhomning assosi hisoblanib, mehnatni quvonch va ma'naviy zavq manbaiga aylantirishga yordam beradi. Estetik tarbiya jarayonida kishilarning qarashlari, his-tuyg'ulari, didi shakllanadi. Bu shakllanish esa g'oyaviy-siyosiy tarbiya bilan, ijodiy tafakkurning rivojlanishi bilan chambarchas bog'liqdir. Hozirgi vaqtida maktablarimizning asosiy vazifalaridan biri o'quvchilarda borliqni faqat ijodiy o'zlashtirishga bo'lgan ehtiyoj va qobiliyatni rivojlantirishnigina emas, balki ularda go'zallik qonunlari asosida borliqni qaytadan qurish hissini tarbiyalash hamdir. Jamiyatimizdagi har bir inson qaysi sohada ish olib borayotganligidan qat'i nazar go'zallik va nafislikni ko'ra bilishi va tushuna bilishi kerak. O'quvchilarning estetik jihatdan tarbiyalash maqsadida o'qituvchi ularga tabiatdagi go'zallikni, shakllarning turli-tumanligini ko'rsatadi. Bolalarga quvonch, hayajon baxsh etgan tabiat go'zalliklari, so'z bilan tasvirlab bo'lmas rang birikmalari uzoq vaqtlargacha ularning xayolida saqlanadi. Manzaraning, daraxt shoxlarining, barglarning, gullarning o'ziga qarab

rasmini chizish, ularning o'ziga xos xususiyatlarini o'rganish orqali bolalar tabiatga ko'proq qiziqadigan bo'ladilar. Bunday darslar bolalarga dunyoni keng va atroficha ko'ra olishga, shuningdek ko'rish orqali olgan taassurotlari doirasini kengaytirishga, narsalar haqida aniq va to'liq tushunchalar hosil qilishga yordam beradi. Rasm chizish jarayonida bolalar narsalarning shakli, mutanosibligi, fazodagi holatlari, rangi va och-to'qlik nisbatlarini diqqat bilan o'rganadilar. Tasviriy san'at mashg'ulotlari o'quvchilarning ko'rish orqali idrok etishini o'stiradi. Ko'z orqali idrok etishni rivojlantirish deganda, biz maqsadga muvofiq kuzatish qobiliyatini tushunamiz, ya'ni narsa va hodisalarni solishtirish, ularning farqi va umumiy tomonlarini aniqlash, narsalarni shakl va tashqi ko'rinish jihatidan klassifikatsiyalashni anglaymiz. Olib borilgan ilmiy tadqiqotlar shuni ko'rsatmoqdaki, odamlar tashqaridan olayotgan har qanday ma'lumotlarining 90% dan ortiqrog'ini ko'z orqali oladi. Bu kishilar hayotida ko'zning roli beqiyos ekanligini ko'rsatib turibdi va u ko'zning imkoniyatlarini o'rganishni talab etadi. Maktabda esa ko'z xotirasini, uning imkoniyatlarini rivojlantirishda boshqa fanlarga qaraganda tasviriy san'at fani ancha ustun turadi. Shu nuqtayi nazardan qaraganda tasviriy san'atning insonlar hayotidagi roli yanada oydinlashadi. Maktablarimiz dunyoviy ta'limga asoslangan bo'lib, har bir fanning oson, qisqa, asosli o'qitilishining pedagogik sharoitini yarata oladigan didaktik prinsiplarga amal qiladi. Bu prinsiplar: ilmiylik, izchillik, tarbiyaviylik, sistemalilik, ketma-ketlik, onglik-faollik, ko'rgazmalilik, ijodkorlik, nazariyot bilan amaliyotning uzviyiligi va yangi o'quv materiallari, o'quv fanlarini bir-biriga bog'liq holda o'qitishdan iborat bo'ladi [4; 421-427].

Inson zoti dunyoga kelganidan boshlab tabiat va jamiyat deb atalgan tashqi muhit bilan munosabatga kirishadi, dastlab bu munosabat anglanmagan, intuitiv, biologik-genetik tarzda, keyinroq esa anglab yetilgan, yuksak darajadagi ijtimoiy hodisa sifatida ro'y beradi. Uni, odatda, ikki xil deb ta'riflash qabul qilingan: birinchisi – insonning salomatligi va turmush tarzini farovonlashtirishga qaratilgan zohiriy moddiy maqsadga erishish tamoyiliga asoslangan utilitar-empirik manfaatdorlik. Ikkinchisi – botiniy-ruhiy manfaatdorlikni, maqsadga muvofiqlikni ta'minlaydigan hissiy-ma'naviy munosabatlar. Mana shu ikki xil munosabatlar insonning insonligini belgilaydigan hodisalar hisoblanadi. Ular ichida estetik munosabat alohida ahamiyatga ega, chunki u nafaqat birinchi tur munosabat turlaridan yuksak darajaligi bilan farqlanadi, balki o'ziga turdosh bo'lgan axloqiy yoki e'tiqodiy munosabatga nisbatan ham miqyosli va qamrovlidir [4; 327,328].

Xulosa qilib aytganda, bugungi kunda kishilarimiz, xususan, yoshlarimizni umuminsoniy ma'naviy qadriyatlar asosida o'zligini anglashi, ma'naviy barkamol insonlar sifatida voyaga yetkazishda milliy qadriyatlarning umuminsoniy ahamiyatga ega falsafiy-estetik g'oyalar, ta'lilot, yo'nalishlar bilan yaqindan tanishib, ular haqida estetik dunyoqarash va tafakkurga ega bo'lmog'i zarur, yangidan-yangi san'at asarlari yaratuvchisi va ijodkoriga aylanishiga turtki bermoq kerak.

- Farzandingizni yuqori san'at bilan tanishtiring. Bunga Motsart, Bax, Shubert, Xaydn

kabi bastakorlarning asarlari mos keladi. Xalq va bolalar qo'shiqlari ham albatta. 6 oylikdan boshlab bolalar musiqa ostida raqsga tushishga harakat qilishadi. Siz ularni klassik baletlarga qo'shishingiz mumkin. Ikki yoshdan boshlab bola ohang bilan o'z vaqtida harakatlana oladi: valsiga aylanish, polkaga sakrash, marshlarga yurish.

- Tug'ilishdan boshlab bolalarga o'zbek va jahon klassiklarining go'zal she'rlarini aytib bering. Chaqaloqlar ularning ovozini tinglashadi, hali ma'nosini tushunmaydilar. Yoshi kattaroq bolalar oddiy xalq ertaklari bilan tanishadilar. Ularni o'yinchoqlar bilan sahnalash tavsiya etiladi. 1,5 yoshida siz bolangizni qo'g'irchoq teatriga olib borishingiz mumkin.
- Bolangizga qalam, bo'yoq, loy yoki modellashtirish uchun xamirni iloji boricha erta bering. Doiralarni chizishga, elastik materiallarni o'ynashga ijozat bering. Bu yerda jarayon muhim, natijasi emas.
- Chiroyli joylarda tez-tez aylaning, tabiatga chiqing.

Shunday qilib, ma'naviyatni yuksaltirishda estetik tarbiyaning zaruriyatini quyidagi cha izohlash mumkin:

- globallashuv jarayonida inson tabiatida sodir bo'ladigan o'zgarishlarni optimallash-tiradi;
- ma'naviy tarbiyaning ajralmas qismi sifatida mavjud tahdidlarga qarshi inson go'zal-ligini har tomonlama uyg'un rivojlanishini ta'minlaydi;
- estetik tarbiyaning asosida insonning hayotga bo'lgan ijodiy munosabati yotadi, bu ijodiylik fetish estetikaning avj olishiga monelik qiladi;
- insonning estetik didini tarbiyalash orqali uning g'ayriestetik jarayonlarga munosa-bati shakllanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Xayrullayeva Z. S. Klasterli yondashuv asosida o'quvchilarda badiiy estetiklikni rivoj-lantirish // Scientific progress. – 2021. – №. 3. – B. 284-288.
2. Басин Е. Я., Крутоус В. П. Философская эстетика и психология искусства // Москва: Гардарики, 2007.
3. Husanov B. Estetik tarbiya klasterining ta'limiyl asoslari // Science and education, 2020. – №1. – B. 561-566.
4. Sobirov S. Tasviriy san'at faning o'quvchilarni estetik jihatdan tarbiyalashdagi o'rni // Science and Education, 2020. – Volume 1. Issue 9. – 421-427.